

TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLARGA QILINGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA SHU BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

Do'stmurodova Sarvinoz Habib qizi

TDIUSF assistenti.

Email:sarvinozdustmurodova4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qimmatli qog'ozlar investitsiyasining tijorat banklari resurslariga ta'siri va bu bilan bog'liq muammolar haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Shu jumladan mamalkatimizda qimmatli qog'ozlar bozori haqida va uning muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari resurslari, qimmatli qog'ozlar, investitsion faoliyat, qimmatli qog'ozlar emissiyasi, qimmatli qog'ozlar bozori.

Raqamli iqtisodiyatning hamma sohalarining munosib rivojlanishi uchun investitsiyalar juda muhim, hozirgi kunda juda ham ulkan moliyaviy resurslarni jamlovchi hamda uni iqtisodiyotning barcha ustuvor tarmoqlariga yo'naltira oladigan yirik moliyaviy institutlardan biri bu tijorat banklari hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan sharoitda sifatli va yuqori darajada samaradorlik bilan faoliyat yuritayotgan bank tizimisiz milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi cheklanadi. Bu sohada tijorat banklarining investitsion faoliyatini oshirish alohida o'rin egallaydi.

Mamalakatimizda tijorat banklarini investitsion faoliyatini yanada rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan tijorat bankalarida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son farmonida "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini

isloh qilish bo'yicha 2020-2025-yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"da¹ qimmatli qog'ozlar bozorida bank operatsiyalari bo'yicha qonunchilikni soddalashtirish haqida chora tadbirlar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar salmog'i yetarli darajada rivojlanmaganligini kuzatish mumkin. Bu holat Respublikamiz tijorat banklarining aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning kichik salmoqqa ega ekanligi va o'z kapital tarkibida uzoq muddatli subordinar qarzlarning hissasining pastligida yaqqol namoyon bo'ladi. Buning natijasida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlardan oladigan foyda dividend va foiz ko'rinishidagi daromadlari banklarning daromadlarining hajmida juda kichik salmoqni egallaydi. Rivojlangan davlatlarda tijorat banklarning foizli daromadlarining tarkibida kredit foizlardan keyingi ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlardan olingan foizlar egallaydi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion faoliyatini kengaytirish masalasida iqtisodchi olimlar quyidagicha fikrlar bildirganlar. Xususan, Bersenova G.² tijorat banklari aksariyat mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorida katta rol o'ynashini ta'kidlab, bu bozorda banklarning roli quyidagicha bo'lishini aytadi: ular professional ishtirokchi sifatida yirik portfel investorlarda, shuningdek xususiy qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida ishtirok eta oladi. Nikonova I.³ fikricha, xo'jalik sub'ektining qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqishini uni rivojlantirish, bozor qiymatini oshirish va kapitalizatsiya bilan izohlaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son [Farmoniga](#) 2-ILOVA

² Берсенева Г. А. (2018) Операции коммерческих банков с ценными бумагами //Иновационное развитие современной науки: проблемы, закономерности, перспективы. – С. 22-25./

³ Никонова И.А. (2006). Ценные бумаги для бизнеса: Как повысить стоимость компании с помощью IPO, облигационных займов и инвестиционных операций. – М.: Альпина Бизнес Букс. – 250 с.

Beloglazova G. va Krolivetskayalar L. 4 qimmatli qog'ozlar emissiyasi nafaqat etishmagan moliyaviy resurslarni to'ldirish muammosini hal qilish, balki kelgusida daromadli joylashtirish uchun mablag'larni jalb qilish vositasi sifatida ham ko'rilishi lozimligini e'tirof etadi.

AJ "AsakaBank" O'zbekistonda yirik banklardan biri bo'lib, rejali asosda o'z aksiyalarini chiqarib joylashtirmoqda. Bank aksiyalari «Toshkent» RFBning rasmiy birja listingiga oliy toifa («A» toifasi) bo'yicha hozirgi kunda Bankning yirik aksiyadorlari – O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot Jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va «O'zavtosanoat» aksiyadorlik Kompaniyasi hisoblanadi.

2019-yil 30-dekabr holatiga ATB Asakabankning sotish-sotib olish uchun qimmatli qog'ozlar hajmi 215398,7 mln. so'mni tashkil etdi⁶. Aksiyalar oddiy aksiyalar yig'indisidan tashkil topdi.

Depozit sertifikatlari bozorida «Asaka» bank O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari o'rtasida etakchi o'rinni egallab kelmoqda. Oxirgi 10 yil davomida Bank o'n ikki marotaba depozit sertifikatlarini muomalaga chiqardi, ularning to'qqiztasi to'liq so'ndirildi. Chiqarilgan depozit sertifikatlarning umumiy hajmi 257,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.⁷

Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz tijorat banklarining milliy qimmatli qog'ozlar bozoridagi rolini oshirish va ularning fond bozoridagi faoliyati samaradorligini ta'minlashga birmuncha omillar salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bular:

4 Белоглазова Г., Кроливецкая Л (2018). Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка: учебник

5 АТБ Асакабанк расмий сайти маълумотлари. Мурожаат санаси: 05.03.2020 й.
https://www.asakabank.uz/uz/moliyalashtirish/qimmatli-qogozlar_

6 АТБ Асакабанк ҳисобот маълумотлари Мурожаат санаси: 05.03.2020 й.
<https://www.asakabank.uz/media/files/articles/36/1581600678.9725.PDF>

7 АТБ Асакабанк ҳисобот маълумотлари Мурожаат санаси: 05.03.2020 й.
<https://www.asakabank.uz/media/files/articles/36/1581600678.9725.PDF>

1. Mamlakatimiz ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida yuqori likvidlik xususiyatga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlarning yetarlimasligi va to'lovga qobil emitentlarning kamligi. Ma'lumotlar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Respublikamizda yuqori likvidlik xususiyatiga ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar juda kam va ayrim qimmatli qog'ozlar turlari amalda mavjud emas.

2. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy holatini baholash tizimining takomillashmaganligi. Tahlil natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Respublikamizning bir qator yirik tijorat banklarida likvidlik darajasi past bo'lgan aksiyalarni sotib olish va buning natijasida moliyaviy yilni zarar bilan yakunlayotgan emitentlarning aksiyalarini qimmatli qog'ozlar portfelida uzoq vaqt davomida ushlab turish hollari tez-tez uchramoqda.

3. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar portfelini emitentlarning tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilinmaganligi. Tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, mamlakatimizning bir qator yirik tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar portfelini emitentlarning tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, o'z navbatida, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalardagi risk darajasini kuchaytiradi va bankning balansida yirik miqdorda zarar summasining yuzaga kelish xavfini saqlab qoladi. Fikrimizcha, tijorat banklari kapitali barqororligini ta'minlash borasida o'z yechimini topishi lozim bo'lgan qator masalalar mavjud. Xususan tijorat banklarning ustav kapitalini samarali boshqarish hamda bank aktivlaridan foydalanish samaradorligi muammosi shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoniga 2-ilova
2. Берсенева Г. А. (2018) Операции коммерческих банков с ценными бумагами //Иновационное развитие современной науки: проблемы, закономерности, перспективы. – С. 22-25./
3. Никонова И.А. (2006). Ценные бумаги для бизнеса: Как повысить стоимость компании с помощью IPO, облигационных займов и инвестиционных операций. – М.: Альпина Бизнес Букс. – 250 с.
4. Белоглазова Г., Кроливецкая Л (2018). Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка: учебник
5. “O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari resurs bazasini shakllantirish muammolari (AT “Asakabank” Samarqand filiali misolida)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi.
6. www.cbu.uz
7. www.asakabank.uz